O'ZBEKISTONDA AHOLI MIGRATSIYASI VA INVESTITSIYA OQIMINING IQTISODIY TAHLILI

Ne'matov Javlon Jo'raqo'zi o'g'li
Xalqaro Nordik universitetiIqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi assistent o'qituvchisi

Abstrakt: Mazkur tahliliy tadqiqotda iqtisodiy siyosat omillarining aholi migratsiyasiga ta'sir darajasi Farg'ona viloyati misolida o'rganilgan. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar va empirik tahlillarni shakllantirishda, asosan, Jahon bankining siyosiy tadqiqotlar yo'nalishida olib borilgan ilmiy izlanishlar hamda tegishli statistik ma'lumotlardan keng foydalanildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida hukumat tomonidan qurilish sohasiga yo'naltirilgan xarajatlar hamda davlat tashkilotlarida o'rtacha ish haqi darajasi kabi miqdoriy iqtisodiy omillar bilan aholining hududga ko'chib kelishi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Mazkur omillarning migratsiya jarayonlariga ta'sirini baholash maqsadida ekonometrik usullardan foydalanilib, ular o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik hamda elastiklik koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi.

Kirish

Har bir davlat o'z iqtisodiy holatini yaxshilashga uringan holda harajatlarni minimallashtirish va daromadlar ko'rsatkichini maksimallashtrishga qaratilgan turli ijtimiy-siyosiy qaror qabul qilishlari keyingi iqtisodiy jarayon uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy holatga qarab iqtisodiy uy xo'jaliklari migratsion harakatlar orqali har tomonlama amalga oshiriladigan siyosatlari orqali o'z daromadlarini boyitishga urinadilar. Ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan har qanday ivestitsiya uy xo'jaliklari uchun ma`lum vaqt oralig'ida yoki uzoq vaqt davomida daromadlarini shakllanishini ta`minlaydi.

O'zgartiriladigan soliq stavkalari, beriladigan subsidiyalar, ijtimoiy himoyaga qaratilgan e'tibor o'z navbatida ichki hamda tashqi migrantlar oqimiga sabab bo`ladi. Migratlar orqali ko'riladigan foyda aholining fuqaroligi bo'lgan davlat uchun va mehnat sarflayotgan hudud byutjetiga ma'lum darajada holatga qarab qisqa foydaliliklni ko'rsatadi. Shu bilan birga shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki har bir amalga oshiriladigan infratuzilmaviy yangilanishlar albatta hodimlar uchun belgilangan miqdorda hisoblangan ish haqi va foydalilik ko'rsatkichi bilan hisoblangan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston aholisining tashqi umumiy ko'chishlaridagi aholi ulushi bugungi kun bilan hisoblanganda 5-6 foizini tashkil qiladi. Shu bois qabul qilingan (aholi jon boshiga asosiy kapitalga o`zlashtrilgan investitsiyalar hajmi) investitsiyalar ulushida xorijga ko'chgan aholiga tegishli bo'lgan 138 mlr so'm o'zlashtrilganligi e'tiborga molik. Bu umumiy 2021-yil qabul qilingan yillik invesitsiyalar hajmining 57-58 foizini tashkil etadi. E'tiborli jihati shundaki rivojlanayotgan uy xo'jaliklari doimo o'zidan yuoqrida namuna sifatida ko'radigan iqtisodiyotlar andozasiga yaqinlashishga harakat qiladi.

Tadqiqot savoli :Mintaqaviy iqtisodiy, infratuzilmaviy, ekologik, ijtimoiy va institutsional omillar ichki migratsiyaga qanday va qay darajada ta'sir ko'rsatadi hamda ushbu ta'sir tahlili qanday namoyon bo'lishi o`rganiladi.

Adabiyotlar tahlili

Aholining istiqomat manizllariga ko'ra yashash bahosi va ular foydalanishi mumkun bolgan imkoniyatlar (infrastruktura darajasi) ularning hududlar bo'ylab harakatiga sabab boladi. Shu bilan birga urbanizatsiyalashgan hududidagi yaxshi o'qish sharoiti, ijtimoiy rivojlangan muhit darajasi insonlarni ko'chishlariga sabab bo'ladi chunki bu ularning kelajaklariga muhim to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Yaxshi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

darajadagi asfaltlangan yo'l va elektr energiyasidan foydalanish imkoniyati sabablariga bog'liq ichki migratsia yuzaga kelishini Shilpi, Sangraula va Li (2004 Nepal) olib borgan izanishlarida aniqladilar. 2012-yilda 1990-yillarda Xitoy provinsiyalari bo'ylab amalga oshirilgan izlanishlarda yuqori salohiyatga ega migrantlar inson kapitaliga e'tibor qaratilgan hududlarni qadrlashlarini va o'quvsiz migrantlar esa bunga befar ekanliglarini aniqlashdi.

Ichki migratsiyaga sabab bo'luvchi omillardan yana biri sifatida joylardagi iqlim o'zgarishini keltirish mumkin. Hudud iqlimining o'ziga hos jihatlari namlik yuqoriligi, qurg'oqchilik, shamol kuchining yuqoriligi va boshqalar hududlar bo'ylab ko'chishlarga sabab bo'lishi mumkun. Qishloq ko'rinishidagi joylarda asosan dehqonchilik, chorvachilik aholining daromadlarini ta'minlaydi. Yog'ingarchilik kamayishi yoki iqlimning o'ziga hosligi ularning turmush tarziga sezilarli darajada ta'siri yuqori. (1960 va 1990) 30 yillik 78 davlatlar uchun davlatlar-darajasi panel ma'lumotlaridan foydalanib, Barrison, Bertinelli va Strobl (2006) Sub-Sahara Afrikada yog'ingarchilik kamayishi urbanizatsiyalashishga ko'maklashganini, ammo boshqa rivojlangan dunyoda bir hil ta'sir ko'rsatish dalilini topa olmaganliklarini ko'rsatadi. Peri va Sasaharaga ko'ra (2019) qashshoq davlatlarda issiqlik darajasining o'sishi qishloq-shahar migratsiyasini jadallashtrish natijasi emasligini, balki uni kamaytirishini aniqladilar, shunigndek qashshoq mamlakatlardan doimiy migratsiya oqimini ta`minlashi bilan nazorat qilinadigan farqlanuvchi natija bo'lib, o'rta darajadagi daromad ko'ruvchi mamlakatlarda qishloq-shahar migratsiyasini o'stiradi. Xitoydagi masalada, (2018) Minale yo'ingarchilikning bir standart chetlanishi migratsiyani shaharlarga 5% ko'tarishini aniqladi, shaharlardagi yangi ko'chishlar ammo shu bilan birga uzoq harajatlar natijasiga olib boradiganlarning har ikkisini namoyon etadi.

Blumenstock, Chi va Tan (2019)ning migratsion qarorlarni qabul qilishdagi migratsion aloqalarni aniqlashdagi inovatsion yondashuvi shuni ko'rsatadiki Ravandadagi boy raqamli topilmalar majmuidan foydalanib har bir shahslar o'rtasidagi aloqa bir oy avval va keying migratsiyadan so'ng yakunlanganligi singari millionlab indvidlar ustida yillar davomida olib borilgan kuzatuvlar ko'chishga olib keladigan qarorlar orqali migratsion qarorlarga olib boruvchi aloqaviy sabablarni nihoyasiga yetkazishni tasvirlashini ta`minlaydi. Mualliflar "interconnected" va "expansive network" orasini farqlaydilar. Interconnected (o'zaro o'rnatilgan aloqa) mintaqaviy ijtimoiy ko'mak ko'rsatuvchi ko'p uchraydigan do'slarning yaqinlashuviga olib keladigan qo'shni hudud vakillarining takrorlanuvchi o'zaro aloqalarini anglatadi. Expansive network (qimmatli aloqa) ma'lumotni uzata biladigan singari harakat qilishi mumkun bo'lgan (Informatsion kapital) hudud vakili bilan bog'lanadi ammo ular o'zaro aloqaga kirishmaydilar. Mualliflar migrantlar "interconnected" aloqalarga ega bo'lgan hududlarga borishni maqul ko'rishadi ammo qimmatli hisoblangan aloqalar mavjud hududlarga borishni kamroq yoqtirishadi.

Yashash sharoiti yaxshiligi ko'chib otuvchilarning harakatlariga ta'sir ko'rsatadi va qaror qabul qilishlarini tezlashtiradi. Erkin amalga oshirilgan tadqiqotda Niger, Aker, Clemens va Ksoll (2011) hududlarda yashovchi qo'ng'iroqlarni qabul qiluvchi do'stlari bilan solishtirilganda doimiy qo'ng'iroqlashib turmaydigan gruhlarga qaraganda mavsumiy migratsiyani sezilarli o'sganini topishdi. Baseler (2021) Keniya qishloqlaridan erkin tanlab olingan jamoalarda o'tkazilgan sinovlardan olingan ma'lumotlarga asoslanib Nayrobida va boshqa shaharlashgan markazlarda ish haqi va oziq-ovqat narxlari va har bir potensial manzilgoh uchun ko'p uchraydigan ish o'rinlari uchun ma'lumotlar qabul qilishgani haqidagi ma'lumotlarni ilgari suradi. Ikkinchi sinovda boshqa erkin tanlangan qishloq aholisi migrant oilalarning daromad va jamg'arish haqidagi to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Har ikki e'tiborga molik ma'lumotlar o'rtacha shahar ish haqi va Nayrobiga migratsiyalar qiymatini 40% miqdorga o'sganligini taxmin qilishimiz mumkun.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Aholi ko‘chib o‘tishiga oid muammolar bilan birga davlat o‘rnatadigan ijtimoiy-siyosiy qarorlar migrantlarga ko‘chishlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkun. Misol uchun davlat yo‘l qurilishi, bank va turli moliyaviy transzaksion normalar, turistik va biznesga aloqador va boshqa viza berish bilan bog‘liq harakatlar migrantlarga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkun. Davlat ijtimoiy-strukturaviy islohotlari natijasida o‘zi hohlagan va hohlamagan tarzda migrantlarga ta’sir etadi.

Efiopiyada migrantlardan iftimoiy servislar va formal ish o‘rnini egallashi uchun ulardan residentlikni isbotlovchi hujjatlarini ko‘rsatishlari talab etiladi va bu do‘stlari va oilalar bilan yashovchilar uchun muammolar to‘g‘diradi. Ta’kidlanishicha migrantlar cheklanishi migratsion narxning ko‘tarilishi (migrantga aylanish uchun) va umumiy iqtisodiyotga ta`sir ko‘rsatadi. Dang, Huang va Selodga ko‘ra (2020) Qishloq hududidan shaharda migrant bo‘lib turgan shahslar farzandlarini shahar hududidagi maktablarga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qo‘shimcha mablag‘ sarflashlari va farzandlarini uylariga qaytarishga olib kelishi mumkin yoki uyga yuboradigan mablag‘ni farzandlar ta’limi uchun sarflashlari mumkun. To‘g‘ridan to‘g‘ri migratsion cheklovlardan farqli ravishda hukumat ijtimoiy-servislarga nisbatan kamroq mablag‘ ajratishi mumkun va ularga avvalo migrantlarning ehtiyoji yuqori bolishi aniq. Braziliyadagi badavlat va ulkan shahar hududlarida suv va konolizatsiya bilan ta`minlanmagan kichik xo‘jaliklarni topish mumkun. Qashshoq migrantlar joylashishi mumkun bolgan bu joylar ularning migratsiyasini kamaytirishi va boshqa hududlarga yo‘naltirishi mumkun (Feeler and Henderson, 2011).

Emran va Shilpilarga (2017) Shri Lankada yer oldi-sotti siyosati cheklangandan so‘ng qishloq hududida ayollarning ijtimoiy ro‘li oshgan bunga sabab uy xo‘jaliklari erkak vakillari migrantlarga aylanganlar yerga egalik qilish huquqi va ish o‘rnlari ayollar orqali to‘ldirilgan. Xitoy davlatida (2011 Mullan va boshqalar) amalga oshirilgan izlanishlariga ko‘ra ijaraga mulklarni berish rental bozorining mukammal ishlash tizimi oqibatida tashqi migratsiya darajasini o‘sishiga turtki bo‘lgan shu bilan ularning cheklanishi migratsiya darajasini kamayishiga olib kelgan. Bundan ko‘rinib turibtiki yerga egalik qilish va undan foyda ko‘rish darajasi migrantlar ko‘chgan yerlarda faoliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va qo‘shimcha mablag‘ bilan o‘zlari yoki yashash hududlaridagi oilalarini ta’minlaydi. Efiopia bozor sharoiti tufayli (Kosech 2018) migratsiya darajasi kamayadi buning sababi o‘laroq aholining yer aktiviga kirish imkoniyati pastligi ularni migrant maqomini olishlariga olib keladi. Hu, Xu va Chen (2011 Xitoy) qishloq hududida yer oldi-sotti boziri mavjud emasligi sababli aholi doimiy takroriy migratsiyani tanlashni maqul ko‘rishlarini aniqladi.

Ekonometrik tahlil va natijalar

Iqtisodiy ta’limotlar va matematik-statistik qarashlarning integratsiyasi zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni yanada tushunarli ta’riflashga hizmat qiladi. Biz foydalangan namunalardan orqali aholining ko‘chish va ular orqali yuz beradigan natijalar yuzasidan statistik ma’lumotlarni berishga harakat qilamiz.

Ekonometrik bilimlar iqtisodiy nazariya, iqtisodiy matematika, iqtisodiy statistika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika kabi fanlarning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishining natijasi sifatida ajralib chiqqan (Sobirov Hasan Ekonometrika II 2022).
EKK asosida

$$KK=c+\alpha_1 LUI+\alpha_2 LKI+\varepsilon$$

KK– Ko`c*h*ib kelganlar soni
LUI–Lortac*ha*h*i*oblangan is*hh*aqi
LKI–Lqurilis*h* is*h*lari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Amalga oshirilgan regression metod aholi birliklariga ekzogen ko'rsatkichlarni moslash uchun ularni logorifimlashdan foydalanib ko'rsatkichlar orasini yaqinlashtrildi va chiziqli regression tahlil amalga oshirildi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki ekzogen ko'rsatkichlar (ta'sir etuvchi omillar) musbat natijalarni taqdim etsa ularning ko'chib kelishlarga to'gridan to'gri bog'liqligi manfiy ko'rinishda bo'ladi (α_1 uchun -1333.641, α_2 uchun -821.073). Qiziqarli tomoni shundaki hech qanday o'zgarishlarni hisobga olmaganda yakuniy ta'sir darajasi musbat ko'rinishda (_cons= 54013.5). Model orqali olingan ma'lumotlar qamrovi haqiqiysining 71% ko'rinishini aks ettiradi (R^2).

Xulosa

Erishilgan natijalar va yuqoridagi maqolalar natijalaridan ko'rsatib o'tilganidek uy xo'jliklarining ijtimoiy sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlari bazan aholilarning ko'chib kelishlarini cheklashi mumkun. Shu bilan birga yuqoridagi maqolalarda erishilgan natijalar biz olib borgan ekonometrik tahlil natijalaridan farq qiladi. Bunga sabab qilib shuni ko'rsatish mumkunki statistik ma'lumotlar aniqiqliligi, modelda qatnashgan egzogen o'zgaruvchilarning boshqa tarkiblari ummumiy natijalar ko'rinishiga ta'sir etadi. Hududda o'rtacha hisoblangan ish haqi 2010-yilga nisbatan 7.425% (2022) nisbatda o'sgamligi kuzatilgan bo'lsa. Hudud bo'ylab ko'chib kelganlar soni 2010 yilga nisbatan -47 % (2022) nisbatda kamayganligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dr Carlos Vargas-Silva Madeleine Sumption, The Labour Market Effects of Immigration, 2023, foydalanish mumkin, https://m igrationobservatory.ox. ac.uk/resources/briefi ngs/the-labour-market-e ffects-of-immigration/ ,(17.062023)
2. Florence Jaumotte, Ksenia Koloskova, Sweta Saxena, Migrants Bring Economic Benefits for Advanced Economies, 2016, foydalanish mumkin, https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2016/10/24/migrants-bring-economic-benefits-for-advanced-economies ,(17.06.2023)
3. George Borjas, Immigration and the American Worker, 2013, foydalanish mumkin, https://cis.org/Report/Immigration-and-American-Worker, (17.06.2023)
4. Gharad Bryan and Shyamal Chowdhury and Ahmed Mushfiq Mobarak, Underinvestment in a Profitable Technology: The Case of Seasonal Migration in Bangladesh, Econometrica, 2014, foydalanish mumkin, https://matthewturner.org/ec1410/readings/Bryan_Chowdhury_Mobarak_Ecma_2014.pdf, (17.06.2023)
5. Gujarati D.N. , Basic econometrics, McGraw-Hill, 2003
6. Sobirov Hasan, Ekonometrika II, Kokand university, 2022
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4940-son qarori, 2021
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi, foydalanish mumkin, https://farstat.uz/uz/ , https://andstat.uz/uz/ (18.06.2023)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.